

**QORAQALPOG'ISTONDA O'SUVCHI KOVUL (CAPPARIS
SPINOSA L.) O'SIMLIGINI BIOEKOLOGIYA SI VA DORIVORLIK
XUSUSIYATLARIGA OID ILMIY IZLANISHLAR**

Kalmuratova Shaxyda Torebay kizi

Qoraqalpog tabiat fanlari ilmiy-tadqiqot instituti

Kazakova Dilnoza Aytbay qizi

O'zMU 2-kurs magistranti

Qoraqalpog'iston Respublikasi quruq iqlim sharoitiga ega bo'lib, unda bir qancha dorivor o'simliklar florasiga boy bo'lib, bu hududda o'sadigan Capparis spinosa L. ning fitokimyoviy tarkibi, biologik faolligi va farmakologik xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan.

Tikanli kovul (kavar, itqovun) kovuldoshlar (Capparacea) oilasiga mansub o't o'simlik bo'lib, qadim zamonlardan beri xalq tabobatida keng qo'llanilib kelingan. Abu Ali ibn Sino tomonidan yaralarni davolash, bo'g'im, bosh, nafas yo'llari va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda turli dori shakllarida foydalanilgan. Kovul ildizidan bargigacha shifobaxsh o'simlik hisoblanadi. Mevasi tarkibida saponinlar, alkaloidlar, uglevodlar, askorbin kislota, moy, ildiz po'stlog'ida staxidrin alkaloidi mavjud. Erta bahorda kaylab olingan ildizi quritilib, allergiyaga moyil bemorlar uchun dori tayyorlanadi. Tibbiyotda ishlatiladigan hom ashyo sifatida – tikanli kovul o'simligi bargi va gulidan foydalanildi. Capparis spinosa L. o'simligi bargi tarkibida 1-1,5% staxidrin alkaloidi, 0,71% gacha yog', karotin, polifenol xosilalari, askorbin va glyukokapparin flavonoidi, guli tarkibida esa 0,32 % gacha rutin, 0,150 mg% gacha askorbin kislota, saponin va kversitin kabi boshqa moddalar mavjud. Tibbiyotda asosiy qismini (65%) Capparis Spinosa L. tashkil etuvchi jigar kasalliklarni davolash uchun Liv-52 preparati ishlab chiqilgan bo'lib, bu o'simlikni dorivorlik xususiyatlarini o'rganish va madaniylashtirish uchun ko'paytirish usullarini ishlab chiqish respublikamizda dorivor o'simliklari assortimentini kengaytirishni taqozo etadi. Aynan Qoraqalpog'iston sharoitida o'suvchi namunalarning tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning dorivorlik xususiyatlarini baholash ilmiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston sharoitida tikanli kovulning (kavar, kovul, geul) ikki turi o'sadi – tikanli kovul (Capparis spinosa L.) va Rozanovina kovuli (Capparis rosanoviana B.Fedts).. O'zbekistonda esa faqat Farg'ona vodiysi va Jizzaxda viloyatlarida o'sadigan tikanli kovul o'simligini to'liq o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Qoraqalpog'istonda hozirgi vaqtda kovul o'simligining tarqalish areallarini aniqlash maqsadida olib borilgan

tadqiqotlarimizda respublikaning shimoliy tumanlari – Bo‘zatov, Nukus tumanlari, Jiltirbas ko‘li atroflarida (Qorao‘zak tumani), janubiy – Amudaryo va Beruniy tumanlarida, Shimoli-g‘arbiy Qizilqum (Qoraqalpog‘iston bo‘limi) da, Orol dengizining qurigan qismida hamda Ustyurt platosida o‘ssishi aniqlandi. Bahorda Bo‘zatov tumani hududidan Nukus shahriga kovulning bir nehta butalari olib kelinib, madaniy ekin maydoniga o‘tqazildi. Madaniy ekinlar orasida o‘sgan kovul tez-tez sug‘orilib turildi, u normal o‘ssishi kuzatildi, lekin gullamadi.

Tikanli kovulning ildiz tizimi juda kuchli rivojlangan, u 15-20 m gacha chuqurga kirib boradi va pastki gorizontlardan suvni tortib olishimkoniyatiga ega. Tabiiysharoitda ulartoshloq, cho‘l va quruq gil tuproqlarda o‘sadi, ayrim hollarda qumlarda uchraydi. Poyasi ko‘p tarmoqlangan, egiluvchan, 1,5 m gacha yetadi. Gullari may oyidan boshlab gullab boshlaydi. Gullash davrining davomiyligi 1 kun. O‘simlikning fitokimyoviy tarkibi zamonaviy analitik usullar yordamida aniq tahlil qilinib, undagi fenollar, flavonoidlar, alkaloidlar, efir moylari va organik kislotalar miqdori baholanadi. Ushbu ma‘lumotlar farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati uchun yangi dori vositalari, biologik faol qo‘shimchalar va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini ochadi.

Keyingi tadqiqotlarimizda tikanli kovult o‘simligining antioksidant, antibakterial va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarini o‘rganish orqali uning tibbiyot va farmakologiyadagi potensialidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, o‘simlikning Qoraqalpog‘istonning quruq iqlim sharoitiga moslashuvchanligi baholanib, uni cho‘llanishga qarshi kurash va ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun ishlatish mumkinligi aniqlanadi.

